XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

Sirdaryo tumani,"Yoshlik" MFY O'zbekiston ko'chasi 98-uy.tel: 377-10-58, 99 699 1947, 91 103 4549

2022 - yil 18 - noyabr VI-55-176-9-128-K/22 Sirdaryo tuman hokimligi

Sirdaryo tumani Navoiy, Dehqonobod, Oq yo‘l, Elobod va Furqat mahalla fuqarolar yig‘inlarida nomlari qonun talablariga javob bermaydigan ko‘chalarga yangi nomlar berish to‘g‘risida

Kun tartibidagi masala deputatlar tomonidan atroflicha muhokama qilinib Xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Geografik obektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 19-oktabrdagi 08-09118-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sirdaryo tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘inlari tomonidan nomlari qonun talablariga javob bermaydigan kochalarni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflari asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022 yil 19-oktabrdagi 08-09118-sonli xati bilan taklif etilgan ko‘cha nomlari ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (J.Soibov), tuman Adliya bo‘limi (K.Ernazarov), tuman Statistika bo‘limi (R.Safarov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (S.Ro‘ziyev), Davlat xizmatlari markazi (R.Usmanov), tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (B.Tavbaev), Davlat kadastrlar palatasi Sirdaryo tumani filiali (A.Begimkulov), tuman Qurilish bo‘limi va tegishli mutasaddi tashkilotlarga:

- mazkur qaror ilovasi asosida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar e’tiborga olinsin va mazkur qarordan kelib chiqqan holda tegishli idoraviy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari B.Norqulov, tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (B.Tavbaev)larga:

- 10 kun muddatda hududlardagi nomlari o‘zgargan ko‘chalarga zamonaviy ko‘rinishdagi (lotin yozuvida) peshlavhalar yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etish;

- peshlavhalar o‘rnatish va moliyalashtirish yuzasidan tegishli tashkilotlarga ko‘rsatmalar berish va nazoratga olish vazifalari yuklansin.

5. Tuman hokimligi huzuridagi geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiya (B.Norqulov), tuman Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (B.Tavbaev) va fuqarolar yig‘inlari raislari bilan hamkorlikda:

- bir hafta muddatda hududlarda yangi nomlangan ko‘chalarning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilansin.

6. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (J.Soibov)ga:

- tuman hududlaridagi nomlari o‘zgargan ko‘chalarda yashovchi fuqarolarga yangi pasport berish va ularni ro‘yxatga qo‘yishda yangi nomlar bilan yozilishini nazoratga olish vazifasi yuklatilsin.

7. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi S.Jo‘raboevga;

- hududlarda yangi nomlangan ko‘chalarning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda ma’lumotlar bersin.

8. “Sirdaryo” gazetasi tahririyati (A.Burliyev)ga ushbu qarorni “Sirdaryo” gazetasida yoritish tavsiya etilsin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashi huzuridagi Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi R.Abduraimov va tuman hokimining o‘rinbosari B.Norqulov zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **B.Mirzaqulov**

Xalq deputatlari Sirdaryo tuman Kengashining
2022 yil 18 noyabrdagi
VI-55-176-9-128-K/22-son qaroriga
1-ilova

Sirdaryo tumanida Geografik obektlarni inventarizasiyadan o‘tkazilgan hamda tasdiqlangan qayta nomlangan Geografik obektlar

RO‘YXATI

№	Ko‘chalar joylashgan QFY va MFY nomi	Ko‘chalarning nomlanishi	Viloyat komissiyasiga taklif etilgan nomlar	Viloyat komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nomlar
1	Navoiy mahalla fuqarolar yig‘ini	Fozil insonlar	Munavvar, Turon, Serjilo	Munavvar
2	Dehqonobod mahalla fuqarolar yig‘ini	Komil inson	Uchturgon, Nafis, Paymard	Nafis
3	Oq yo‘l mahalla fuqarolar yig‘ini	Matonatli insonlar	Ziyonur, Birlashgan, Xaloskor	Ziyonur
4	Elobod mahalla fuqarolar yig‘ini	Oliyjanob insonlar	Sinchalak, Vatan, Iqbol	Iqbol
5	Furqat mahalla fuqarolar yig‘ini	Polizchi ko‘chasi	Inoqlik, Ipaksoy, Vatan	Vatan